


ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-avgust)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2020-yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 772,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 72,8 mln. AQSh dollariga yoki 4,3 % ga o'sdi.

**TASHQI SAVDO
AYLANMASI
VA BALANSI**
(yanvar-
avgust, mln.
AQSh dollari)



Ma'lumot uchun: Andijon viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

**ANDIJON
VILOYAT
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI
ULUSHGA EGA
BO'LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil
yanvar-avgust,
mln. AQSh
dollari, ulushi,
% da)**

TSA da eksport hajmi 339,9 mln. AQSh dollariga (3,5 % ga kamaydi) va import hajmi 1 432,1 mln. AQSh dollariga (6,3 % ga o'sdi) yetdi. Hisobot davrida – 1 092,2 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Koreya Respublikasi	916,1	0,4	915,7	51,7
Xitoy	209,4	37,4	172,0	11,8
Rossiya Federatsiyasi	185,5	49,5	136,0	10,5
Qirg'iziston	155,3	139,3	16,0	8,8
Qozog'iston	89,9	81,5	8,4	5,1
Turkiya	45,1	6,9	38,2	2,5
Tailand	41,1	0,0	41,1	2,3
Chexiya	13,8	0,1	13,7	0,8
AQSh	12,4	0,3	12,1	0,7
Braziliya	12,1	0,0	12,1	0,7

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Andijon viloyati, jahonning 66 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (51,7 %), Xitoy Xalq Respublikasida (11,8 %), Rossiya Federatsiyasida (10,5 %), Qirg'iz Respublikasida (8,8 %), Qozog'istonda (5,1 %) va Turkiya (2,5 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston va Afg'oniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Koreya Respublikasi, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Tailand, Chexiya, AQSh va Braziliya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 4 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qirg'iz Respublikasi (123,3 mln. AQSh dollari), Qozog'iston (73,1 mln. AQSh dollari), Ozarbayjon (6,3 mln. AQSh dollari), Ukraina (5,2 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir.

ANDIJON
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-
avgust,
mln. AQSh
dollari)

Davlatlar	2018-yil.	2019-yil.	2020-yil.
Koreya Respublikasi	610,8	904,3	916,1
Eksport	1,3	0,7	0,4
Import	609,5	903,6	915,7
Saldo	-608,2	-902,9	-915,3
Xitoy Xalq Respublikasi	154,9	192,6	209,4
Eksport	71,0	86,2	37,4
Import	83,9	106,4	172,0
Saldo	-12,9	-20,2	-134,6
Rossiya Federatsiyasi	130,8	150,7	185,5
Eksport	63,4	45,3	49,5
Import	67,4	105,4	136,0
Saldo	-4,0	-60,1	-86,5
Qirg'iz Respublikasi	63,6	148,5	155,3
Eksport	49,6	128,4	139,3
Import	14,0	20,1	16,0
Saldo	35,6	108,3	123,3
Qozog'iston	65,5	73,7	89,9
Eksport	42,4	60,7	81,5
Import	23,1	13,0	8,4
Saldo	19,3	47,7	73,1
Turkiya	28,6	32,0	45,0
Eksport	1,2	9,1	6,9
Import	27,4	22,9	38,1
Saldo	-26,2	-13,8	-31,2
Tailand	2,4	4,3	41,1
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	2,4	4,3	41,1
Saldo	-2,4	-4,3	-41,1

ANDIJON
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-
avgust,
mln. AQSh
dollari)



Davlatlar	2018-yil.	2019-yil.	2020-yil.
Chexiya Respublikasi	3,8	8,8	13,8
Eksport	0,0	0,0	0,1
Import	3,8	8,8	13,7
Saldo	-3,8	-8,8	-13,6
AQSh	7,5	45,1	12,3
Eksport	0,2	0,3	0,2
Import	7,3	44,9	12,1
Saldo	-7,2	-44,6	-11,9
Braziliya	4,5	8,0	12,1
Eksport	0,0	0,1	0,0
Import	4,5	7,9	12,1
Saldo	-4,5	-7,8	-12,1
Germaniya	5,4	14,5	11,8
Eksport	0,0	0,4	0,1
Import	5,4	14,1	11,7
Saldo	-5,4	-13,7	-11,6
Italiya	5,0	10,1	8,6
Eksport	0,0	0,1	0,6
Import	5,0	10,0	8,0
Saldo	-5,0	-9,9	-7,4
Ukraina	9,7	6,4	7,8
Eksport	4,2	4,1	6,5
Import	5,5	2,3	1,3
Saldo	-1,3	1,8	5,2
Hindiston	9,6	7,0	7,7
Eksport	0,4	0,0	0,2
Import	9,2	7,0	7,5
Saldo	-8,8	-7,0	-7,3

ANDIJON
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-
avgust,
mln.AQSh
dollari)

Davlatlar	2018-yil.	2019-yil.	2020-yil.
Ozarbayjon	0,3	3,6	7,5
Eksport	0,3	1,7	6,9
Import	0,0	1,9	0,6
Saldo	0,3	-0,2	6,3
Polsha	3,2	5,1	5,6
Eksport	0,0	0,2	0,4
Import	3,2	4,9	5,2
Saldo	-3,2	-4,7	-4,8
Slovakiya	2,1	2,4	4,3
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	2,1	2,4	4,3
Saldo	-2,1	-2,4	-4,3
Meksika	1,8	4,5	4,3
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	1,8	4,5	4,3
Saldo	-1,8	-4,5	-4,3
Latviya	5,9	7,1	3,5
Eksport	0,4	1,0	0,6
Import	5,5	6,1	2,9
Saldo	-5,2	-5,1	-2,3
Avstriya	1,1	5,5	2,5
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	1,1	5,5	2,5
Saldo	-1,1	-5,5	-2,5

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-avgust oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 25,5 ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2019-yilning shu davriga nisbatan 15,4 % ga oshgan.

ANDIJON
VILOYATINING
TASHQI SAVDO
AYLAN MASIDA
MDH
MAMLAKATLARI
VA BOSHQA
XORIJIY DAV-
LATLARNING
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-
avgust,
mln. AQSh
dollari,
ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020-yil yanvar-avgust oylarida 2019-yilning shu davriga nisbatan o'sdi (1,0 % ga) va jami TSA dagi ulushi 74,5 % ni tashkil etdi.

ANDIJON VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-avgust)

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning eksportyorlari soni 340 tani tashkil etib, ular tomonidan 339,9 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019-yilning mos davriga nisbatan 3,5 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,3 % ni tashkil etib, ular turli xil tayyor buyumlar (31,3 %), mashinalar va transport asbob uskunalari (29,3 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (21,9 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-avgust,
ulushi, % da)



Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar

Ichimlik va tamaki

Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari

Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar

Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar

Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari

Mashinalar va transport asbob uskunalari

Turli xil tayyor buyumlar

Xizmatlar

	XSST tarkibi	Ming AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
		Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-avgust)	Jami eksport	339 912,2	288 275,4	51 636,8	100,0	100,0	100,0
	shu jumladan:						
	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	32 340,8	31 730,3	610,5	9,5	11,0	1,2
	Ichimlik va tamaki	243,0	243,0		0,1	0,1	
	Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	22 627,7	18 204,8	4 422,9	6,7	6,3	8,6
	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,9	2,9		0,0	0,0	
	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	249,2	249,2		0,1	0,1	
	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1 607,4	1 103,1	504,3	0,5	0,4	1,0
	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalan gan sanoat tovarlari	74 382,9	32 977,1	41 405,8	21,9	11,4	80,2
	Mashinalar va transport asbob uskunalari	99 708,2	98 255,2	1 452,9	29,3	34,1	2,8
	Turli xil tayyor buyumlar	106 350,0	103 504,6	2 845,3	31,3	35,9	5,5
	Xizmatlar	2 400,3	2 005,2	395,1	0,7	0,7	0,8

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTINING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2020-yil
yanvar-avgust)**

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi qora va rangli metallar hissasiga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan mashina va uskunalar va klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar hamda boshqa xizmatlarga to'g'ri kelmoqda.

XSST tarkibi	2019 yilning yanvar-avgustiga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	96,5	117,5	48,4
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	40,8	46,1	5,9
Ichimlik va tamaki	196,0	196,0	
Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	80,3	80,1	81,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	55,2	55,2	
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	97,7	97,7	
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	189,4	130,2	302,7 m
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	66,8	133,7	47,7
Mashinalar va transport asbob uskunalar	161,8	166,3	57,2
Turli xil tayyor buyumlar	156,2	154,6	2,5 m
Xizmatlar	97,9	106,9	68,5

**EKSPORT
TARKIBI
DINAMIKASI
(yanvar-
avgust,
% da)**

2020-yil yanvar-avgust oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2018-yilning yanvar-avgustiga nisbatan, ichimlik va tamaki, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o'sish kuzatildi.

XSST tarkibi	2018-yil.	2019-yil.	2020-yil.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	22,8	22,5	9,5
Ichimlik va tamaki	-	-	0,1
Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	2,3	8,0	6,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,3	0,2	0,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	37,5	31,6	21,9
Mashinalar va transport asbob uskunalar	15,0	17,5	29,3
Turli xil tayyor buyumlar	20,8	19,3	31,3
Xizmatlar	1,3	0,7	0,7

**XSST BO'LIMI
BO'YICHA
AYRIM
MAHSULOTLAR
EKSPORTI
TARKIBI
(2020-y.
yanvar-avgust)**


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2019- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	30 409,0	41,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	669,4	290,5
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	591,8	10,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	349,2	156,0
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	263,3	774,7
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	243,0	199,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	17 767,5	83,0
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	4 411,1	80,9
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	433,7	34,5
O'g'itlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	15,4	40,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2,9	55,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	248,6	97,5
Qayta ishlangan hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,5	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Organik kimyo moddalar	499,4	
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	283,9	179,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	252,2	102,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	230,8	99,1
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	167,1	347,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	65 867,1	62,3

**XSST BO'LIMI
BO'YICHA
AYRIM
MAHSULOTLAR
EKSPORTI
TARKIBI
(2020-y.
yanvar-avgust)**

Metallidan tayyorlangan buyumlar	6 331,2	192,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1 568,4	108,1
Rezina buyumlar	172,1	79,8
Rangli metallar	127,3	98,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	86 954,9	187,9
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari	11 795,5	83,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	711,2	90,5
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	161,6	241,3
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	67,4	18,7
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	91 417,5	162,5
Poyabzal	9 930,7	128,3
Har xil tayyor buyumlar	3 916,6	117,2
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash buyumlar	589,3	152,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	399,4	146,0
Xizmatlar		
Moliyaviy xizmatlar	1 334,9	77,1
Transport xizmatlari	578,7	308,8
Safarlar (turizm)	262,9	63,3
Tehnik xizmat va ta'mirlash xizmatlari	223,7	191,4

**MDH
VA BOSHQA
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-
avgust,
mln. AQSh
dollari,
ulushi, % da)**

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018-yil yanvar-avgustdagi 67,8 % dan 2020-yil yanvar-avgustida 84,8 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 15,2 % ni tashkil etdi.




2020-yilning yanvar-avgust oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qirg'iz Respublikasi (41,0 %), Qozog'iston (24,0 %), Rossiya Federatsiyasi (14,6 %), Xitoy Xalq Respublikasi (11,0 %), Ozarbayjon (2,0 %), Turkiya (2,0 %), va Ukraina (1,9 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 96,5 foizni tashkil etmoqda.

**ANDIJON
VILOYAT
EKSPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020-yil
yanvar-avgust,
% da)**

**ANDIJON
VILOYATINING
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLARGA
AMALGA
OSHIRGAN
EKSPORTI
HAJMI VA
O'SISH
SUR'ATLARI
(yanvar-
avgust, mln.
AQSh. dollar)**

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019-yining mos davriga nisbatan 36 davlatdan 46 davlatga ko'paydi.



Asosiy hamkor davlatlar	Eksport	O'sish sur'ati, % da
Qirg'iz Respublikasi	139,3	108,5
Qozog'iston	81,5	134,3
Rossiya Federatsiyasi	49,5	109,2
Xitoy Xalq Respublikasi	37,4	43,3
Turkiya	6,9	76,4
Ozarbayjon	6,9	3,9 m
Ukraina	6,5	156,5

**ANDIJON
VILOYATINING
AYRIM
DAVLATLAR
BILAN EKSPORT
TARKIBI
(2020 yil
yanvar-avgust,
ming AQSh.
dollar)**

Davlat nomi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Qirg'iz Respublikasi	128 419,4	139 295,6	2,5 m	108,5	1	1
Qozog'iston	60 690,9	81 535,9	143,3	134,3	3	2
Rossiya Federatsiyasi	45 310,0	49 466,6	71,5	109,2	4	3
Xitoy Xalq Respublikasi	86 185,9	37 350,3	121,4	43,3	2	4
Turkiya	9 063,7	6 926,5	7,5	76,4	5	5
Ozarbajjon	1 733,1	6 866,6	5,5 m	3,9 m	11	6
Ukraina	4 166,6	6 521,9	99,9	156,5	6	7
Afg'oniston	3 676,7	1 600,0	17,3 m	43,5	7	8
Moldova Respublikasi	1 801,4	1 567,9	4,0 m	87,0	10	9
Belarus	1 805,3	1 537,8	168,0	85,2	9	10
Tojikiston	1 297,2	1 464,9	2,0 m	112,9	12	11
Eron Islom Respublikasi	2 143,2	771,6	5,8 m	36,0	8	12
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya		739,4				13
Italiya	50,4	582,8		11,5 m	29	14
Latviya	991,4	575,1	2,7 m	58,0	14	15
Litva	132,0	550,6		4,2 m	22	16
Koreya Respublikasi	727,2	381,8	57,6	52,5	15	17
Polsha	200,9	379,5		188,9	20	18
AQSh	285,4	251,2	165,8	88,0	19	19
Birlashgan Arab Amirliklari	62,6	226,9	4,5	3,6 m	28	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari, material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

**ANDIJON
VILOYATINING
AYRIM
DAVLATLAR
BILAN EKSPORT
TARKIBI
(2020 yil
yanvar-avgust,
ming AQSh.
dollar)**

XSST tarkibi	Qirg'iz Respublikasi		Qozog'iston		Rossiya Federatsiyasi		XXR	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Jami eksport	128 419,4	139 295,6	60 690,9	81 535,9	45 310,0	49 466,6	86 185,9	37 350,3
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	51 139,5	21 662,9	10 316,1	380,8	6 758,2	9 534,5	1 029,6	1,7
Ichimliklar va tamaki	121,7	243,0	2,3					
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	22 511,1	18 119,5	35,5		55,0		2 398,3	2 700,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,8	2,3						
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		0,8						
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	468,2	745,3	42,0	115,2	68,1	61,4		
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalanган sanoat tovarlari	9 159,9	26 954,4	740,3	561,0	14 129,5	4 810,1	82 756,0	34 647,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	3 050,0	1 336,7	43 740,7	76 097,5	7 284,2	7 715,4		
Turli xil tayyor buyumlar	41 931,5	70 150,1	5 698,0	4 155,3	15 296,0	25 648,5		
Xizmatlar	32,8	80,6	116,1	226,0	1 719,0	1 696,8	2,0	1,2

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 30,3 mln. dollar qiymatli 51,6 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan 38,9 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 56,2 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 11,4 mln. AQSh dollariga teng 31,4 ming tonna sabzavot, shuningdek, 10,5 mln. AQSh dollari qiymatidagi 8,2 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 8,9 % ni tashkil etdi.

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI
(2020 yil
yanvar-
avgust,
ming. AQSh
dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (66,8 %), Rossiya Federatsiyasi (30,4 %), Qozog'iston (1,1 %), Latviya (0,5 %), Turkiya (0,4 %) va Ukraina (0,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI
GEOGRAFIY
ASI (2020 yil
yanvar-
avgust)**

Davlat nomi	2019-yil			2020-yil		
	Tonna	AQSh dollar	Ulushi* % da	Tonna	AQSh dollar	Ulushi* % da
Qirg'iz Respublikasi	23 505,6	49 837,1	68,2	34 228,1	20 317,3	66,8
Rossiya Federatsiyasi	11 249,5	6 401,7	8,8	15 707,8	9 256,4	30,4
Qozog'iston	16 339,3	10 102,9	13,8	541,3	320,7	1,1
Latviya	2 008,6	631,2	0,9	587,3	166,2	0,5
Turkiya	314,6	473,2	0,6	80,5	129,7	0,4
Ukraina	3 280,5	548,4	0,8	422,6	126,6	0,4
Germaniya	44,0	198,0	0,3	20,0	26,4	0,1
Belarus	41,2	17,2	0,0	101,7	25,5	0,1
Mongoliya			0,0	40,6	24,6	0,1
Afg'oniston	2 069,6	1474,1	2,0	138,6	13,9	
Xitoy Xalq Respublikasi	1 406,1	1 021,7	1,4	0,4	1,7	
Boshqa davlatlar	3 566,4	2 378,8	3,3			

**-qiymat ifodasida*

**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI**

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 160,0 mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 47,1 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 3,8 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (56,4 %), paxtadan yigirilgan ip (27,9 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 169 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 24 ta davlatiga eksport qilindi.


**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI
DINAMIKASI
(yanvar-avgust,
ming AQSh
dollari)**

Tovar nomi	2019-yil.	2020-yil.
Paxtadan yigirilgan ip	97 026,8	44 698,3
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlar	55 279,2	90 239,9
Naqshli matolar	2 169,9	12 340,1
Paxtadan gazlamalar	669,0	2 380,9
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	917,2	2 981,9
Paxta mahsulotlari	3 447,8	1 463,8
Ipak va ipak mahsulotlari	5 544,8	4 950,5
Gilamlar	1,2	1,6

ANDIJON VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-avgust)

2020-yil yanvar-avgust oylarida import hajmi 1 432,1 mln. AQSh dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan 6,3 % ga o'sdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (63,2 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (19,4 %), turli xil tayyor buyumlar (5,4 %), shuningdek xizmatlar (4,6 %) ga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI
BO'YICHA
IMPORT
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-avgust,
ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020-yilning yanvar-avgustida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,1 mln. AQSh dollariga o'sdi va 1 432,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 65,7 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORT TARKIBI
(2020-yil
yanvar-avgust)**

XSST tarkibi	Ming AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlar	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlar	Boshqa davlatlar
Jami import	1 432 126,0	163 507,8	1 268 618,2	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11 105,8	3 950,3	7 155,6	0,8	2,4	0,6
Ichimliklar va tamaki	9,5		9,5			
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	16 803,3	11 776,1	5 027,2	1,2	7,2	0,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	7 416,0	6 169,7	1 246,3	0,5	3,8	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1 932,0	1 932,0		0,1	1,2	
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	68 708,5	10 196,5	58 512,0	4,8	6,2	4,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	277 518,4	98 747,5	178 770,8	19,4	60,4	14,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	905 119,4	29 676,5	875 443,0	63,2	18,1	69,0
Turli xil tayyor buyumlar	77 951,5	297,9	77 653,6	5,4	0,2	6,1
Xizmatlar	65 561,7	761,4	64 800,2	4,6	0,5	5,1

Importning eng katta ulushi, jumladan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (60,4 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (6,2 %) hamda nooziq-ovqat xomashyo, (yoqilg'idan tashqari) (7,2 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (69,0 %) va turli xil tayyor buyumlar (6,1 %), hissasiga to'g'ri keladi.

**MDH VA
BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORTNING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2020-yil
yanvar-avgust)**

XSST tarkibi	2019-yil yanvar-avgustga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	106,3	111,9	105,6
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	76,9	48,9	112,4
Ichimliklar va tamaki	30,0		
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	164,8	179,5	138,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	97,4	97,0	99,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	228,4	238,8	
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	94,7	87,9	96,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	106,6	117,6	101,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	112,0	138,0	111,2
Turli xil tayyor buyumlar	97,5	6,7	102,9
Xizmatlar	70,7	28,0	72,0

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2018-yilning mos davriga nisbatan asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari importining ulushi 14,1 % dan 19,4 % gacha o'sdi, mashinalar va transport asbob-uskunolari 66,6 % dan 63,2 % ga, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi esa 3,0 % dan 0,8 % ga kamaydi.

**IMPORT TARKIBI
DINAMIKASI
(2020-yil
yanvar-avgust,
ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2018-yil.	2019-yil.	2020-yil.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,0	1,1	0,8
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,4	0,8	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,7	0,6	0,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,5	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	5,7	5,4	4,8
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	14,1	19,3	19,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	66,6	60,0	63,2
Turli xil tayyor buyumlar	3,0	5,9	5,4
Xizmatlar	5,0	6,9	4,6

**XSST BO'YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-avgust)**

Mahsulot nomi	Ming AQSh dollari	O'zgarish sura'tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 800,3	64,2
Tirik hayvonlar	3 494,2	73,8
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	2 494,1	121,8
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 012,2	110,0
Sabzavotlar va mevalar	757,4	52,1
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	9,5	30,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	9 432,8	265,7
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 576,2	100,8
Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	2 200,9	2,3 m.
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	1 429,1	2,0 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	816,6	60,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Ko'mir, koks va briketlar	5 531,5	91,5
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 884,5	120,8



**XSST BO'YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-avgust)**

Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	1 932,0	2,5 m.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	26 411,6	77,9
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	14 980,3	137,9
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar	9 958,0	94,3
Organik kimyo moddalari	6 749,8	101,0
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	4 550,2	81,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	110 379,6	114,6
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	62 205,5	104,4
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	53 459,8	106,9
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	25 047,4	107,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	15 585,4	96,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Avtomobillar	668 311,0	115,8
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	87 115,7	93,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	80 785,3	126,9
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	32 652,6	88,1
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalar	19 799,3	105,7
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	28 333,0	86,1
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	25 149,5	137,3
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	18 450,2	92,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	4 472,7	191,6
Poyabzal	801,4	63,0
Xizmatlar		
Boshqa joylarda tasniflanmagan intellektual mulk obyektlaridan foydalanganlik uchun to'lovlar	37 943,8	101,4
Boshqa biznes xizmatlari	17 108,0	6,9 m.
Transport xizmatlari	3 800,5	7,2
Texnik xizmat va ta'mirlash xizmatlari	3 506,2	
Telekommunikatsiya, axborot va kompyuter xizmatlari	3 203,2	17,4 m.


MDH VA
BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORTNING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2020-yil
yanvar-avgust)

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining kamayishiga sabzavotlar va mevalar (52,1 % ga), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (64,2 % ga) va tirik hayvonlar (73,8 % ga) importining kamayishi ta'sir qilgan.


Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importi kamayishiga esa, birlamchi shakldagi plastmassalar importining kamayganligi (77,9 %) hamda birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar (81,1 %) bevosita ta'sir etgan.



2018-yil



2019-yil



2020-yil

● MDH

● Boshqa davlatlar

Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Koreya Respublikasi umumiy import hajmida 63,9 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (9,5 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egallab kelmoqda.

**TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTIDAGI
YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
(yanvar-
avgust)**

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.
Koreya Respublikasi	90 3611,9	915 744,2	148,2	101,3	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	106 380,9	172 049,1	126,8	161,7	2	2
Rossiya Federatsiyasi	105 426,8	135 991,4	156,3	129,0	3	3
Tailand	4 299,4	41 056,6	182,6	954,9	19	4
Turkiya	22 882,1	38 153,1	83,6	166,7	5	5
Qirg'iz Respublikasi	20 108,2	15 974,3	144,0	79,4	6	6
Chexiya	8 761,5	13 699,6	233,5	156,4	11	7
Braziliya	7 918,2	12 082,2	176,3	152,6	12	8
AQSh	44 854,1	12 081,5	611,7	26,9	4	9
Germaniya	14 114,9	11 662,7	263,2	82,6	8	10
Qozogiston	12 968,0	8 376,5	56,1	64,6	9	11
Italiya	10 014,0	7 987,3	199,2	79,8	10	12
Hindiston	7 027,8	7 459,6	76,5	106,1	13	13
Polsha	4 887,1	5 186,5	152,2	106,1	17	14
Slovakiya	2 429,3	4 320,3	116,9	177,8	24	15
Meksika	4 477,0	4 268,8	252,2	95,4	18	16
Latviya	6 155,7	2 907,4	111,5	47,2	14	17
Avstriya	5 520,6	2 451,3	488,3	44,4	16	18
Ispaniya	824,7	2 078,7	39,4	252,1	33	19
Eron Islom Respublikasi	2 514,9	1 500,5	170,5	59,7	23	20

**ANDIJON
VILOYAT
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020 - yil
yanvar-avgust,
% da)**



Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Tayland, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Chexiya) jami importning 93,1 % ini tashkil qiladi, bu 1 332,7 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Viloyatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Koreya, Rossiya, Xitoy va Tailand tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**MASHINA VA
USKUNALAR
IMPORTI**

2020-yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan 905,1 mln. AQSh dollari miqdorida mashinalar va transport asbob uskunalar importi amalga oshirilgan bo'lib, umumiy import hajmining 63,2 % ini tashkil qildi.

Import qilingan usbu sohada asosiy ulushni avtomobillar (73,8 %), aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar (9,6 %), sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari (8,9 %) egallagan.

Joriy yilning yanvar-avgust yakunlariga ko'ra, mashina va transport asbob uskunalar importi 2019 - yil yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish (18,7 %) qayd etildi.

Mashina va uskunalar	2019-yil.	2020-yil.
Avtomobillar	577,2	668,3
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	92,8	87,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	63,7	80,8

**MASHINA VA
USKUNALAR
IMPORTI
DINAMIKASI
(yanvar-
avgust,
mln. AQSh
dollari)**

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan sanoat sohasining avtomobilsozlik tizimi butlovchi qismlari importi o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon avtomobil bilan ta'minlash bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:74-224-82-57**